



TADQIQOTLAR

TADQIQOTLAR

jahon ilmiy metodik jurnal

 tadqiqotlar.uz

21



21- son



1 - qism



Sentabr



OPEN  ACCESS



Google
Scholar

I  I JOURNALS
MASTER LIST

www.tadqiqotlar.uz

TADQIQOTLAR

Jahon ilmiy – metodik jurnali

21 - SON

Avgust– 2023



ЗЎРИҚИШДАГИ БОШ ОҒРИҒИ ВА ПСИХОВЕГЕТАТИВ БУЗИЛИШЛАР БОРАСИДА ЗАМОНАВИЙ ҚАРАШЛАР

*Ахмедова Дилафрўз Баҳодировна
Хотамов Бекзоджон Хотамович
Бухоро давлат тиббиёт институти*

Аннотация: жаҳон миқёсида бош оғриқлари бирламчи шаклларида психовегетив ўзгаришлар ва постурал бузилишларни олдини олиш ва даволашнинг самарали усуллари йўлга қўйиш бўйича бир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Турли мамлакатларда олиб борилган кўп тармоқли изланишлар шуни кўрсатадики, зўриқишдаги бош оғриғида иммун тизим ва вегетатив тизимда ўзгаришлар динамикада турлича намоён бўлади, ҳамда ўзига хос симптомокомплекс билан намоён бўлади

Калит сўзлар: бош оғриғи, зўриқишдаги бош оғриғи, психовегетатив ўзгаришлар,нейропсихологик, хавотир

СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ГОЛОВНЫЕ БОЛИ НАПРЯЖЕНИЯ И ПСИХОВЕГЕТАТИВНЫЕ РАССТРОЙСТВА

Аннотация: в настоящее время проводится ряд научных исследований, направленных на установление эффективных способов профилактики и лечения психовегетативных изменений и нарушений осанки при первичных формах головных болей в глобальном масштабе. Мультидисциплинарные исследования в разных странах показывают, что изменения в иммунной и вегетативной системах при головных болях напряжения проявляются по-разному в динамике, а также при специфическом симптомокомплексе

Ключевые слова: головная боль, головная боль напряжения, психовегетативные изменения, нейропсихологические, тревога

Дунё миқёсида сўнгги 25 йил ичида неврологик касалликлар салмоғи аҳоли сони ошиши ва яшаш давомийлиги ошиши ҳисобига ўсди. Зўриқишдаги бош оғриғи энг кўп тарқалган неврологик бузилиш бўлиб, дунё бўйича 1,5 миллиард аҳоли азият чекади деб баҳоланади. Турли муаллифлар берган маълумотларга кўра зўриқишдаги бош оғриғи тарқалиши 20,6% дан 78% гача кўрсаткични ташкил қилади. Бош оғриғи сурункали шакли эпизодик шаклга нисбатан бемор дезадаптациясига олиб келувчи узоқ муддатли ҳолат деб баҳоланади. Сурункали зўриқишдаги бош оғриғи 0,5 % дан 4,8% гача кўрсаткични ташкил қилиб, асосан аёлларда кузатилади ва бу малакали тиббий ёрдамни талаб қилади. Бутун жаҳон

соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотига кўра, 18 ёшдан 65 ёшгача бўлган аҳолининг тўртдан уч қисмида сўнгги бир йил ичида камида бир марта бош оғриқ хуружи кузатилади, сурункали бош оғриқлари эса 2-3% аҳолида кузатилади. Эпизодик бош оғриқлари йирик тиббий ёки ижтимоий муаммо ҳисобланмайди, сурункали зўриқишдаги бош оғриқлари эса бемор кундалик ҳаёт фаолиятини ва сифатини яққол бузиб, депрессия, уйқунинг бузилиши, соматоформ бузилишлар каби коморбид бузилишлар билан бирга кечади, самарали муолажа танлаш қийинлиги сурункали зўриқишдаги бош оғриғи ва мигренни мураккаб ижтимоий-тиббий муаммо даражасига олиб чиқади. Исталган оғриқ синдроми психовегетатив бузилишлар билан кечиши маълум. Шу сабабли жаҳон миқёсида бош оғриқлари бирламчи шаклларида психовегетив ўзгаришлар ва постурал бузилишларни олдини олиш ва даволашнинг самарали усуллари йўлга қўйиш бўйича бир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Турли мамлакатларда олиб борилган кўп тармоқли изланишлар шунини кўрсатадики, зўриқишдаги бош оғриғида иммун тизим ва вегетатив тизимда ўзгаришлар динамикада турлича намоён бўлади, ҳамда ўзига хос симптомокомплекс билан намоён бўлади. Шунини ҳисобга олган ҳолда, зўриқишдаги бош оғриқлари тез-тез эпизодик ва сурункали турида беморлардаги клиник-неврологик, нейропсихологик, психовегетатив, постурал бузилишлар, нейрофизиологик ва нейровизуал ўзгаришларни солиштирма ташхиси, беморларни эрта ташхислаш, этиопатогенетик асосланган даволаш ва профилактика усуллари таклиф этиш, даволаш самарадорлигини баҳолаш усуллари ишлаб чиқишни такомиллаштириш алоҳида аҳамият касб этади. Мамлакатимизда соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш ва уни жаҳон талабларига тенглаштириш борасида мақсадли ва амалий тадбирлар амалга оширилмоқда, шу жумладан зўриқишдаги бош оғриғи мавжуд беморларда касалликни эрта ташхислаш ва комплекс даволашнинг самарадор усуллари ишлаб чиқиш, ҳар томонлама ва тўғри ёндашиш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу борада «...тиббий ёрдамнинг самарадорлиги, сифати ва оммабоплигини ошириш, шунингдек, тиббий стандартлаштириш тизимини шакллантириш, ташхис қўйиш ва даволашнинг юқори технологик усуллари жорий этиш...» каби вазифалар белгиланган. Ушбу вазифалар беморларда зўриқишдаги бош оғриғини комплекс баҳолашда психовегетатив бузилишлар ва постурал бузилишларни ҳисобга олиш, даволашда ҳар томонлама ёндашиш долзарб илмий йўналишлардан бири бўлиб ҳисобланади. Йил давомида Европа катта ёшли аҳолисининг 50% и, ҳамда камида 90%и умрида ҳеч бўлмаганда бир марта бош оғриғидан шикоят қилади. Касаллик ЖССТ томонидан ногиронликка олиб келадиган 10 та касалликдан бири деб тан олинган. Бош оғриқларида ногиронликнинг юқори кўрсаткичи беморларда қўшилиб келадиган бир қанча

патологиялар билан боғланади. Уларга рухий бузилишлар, бўйинда оғрик, вестибуляр симптомлар ва мувозанат бузилишларини, мигренда мияча патологияларини келтиришимиз мумкин. Касаллик ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлиш, патологик жараён шаклланишининг механизмларини билиш мақбул даволаш имкониятини беради. Зўриқишдаги бош оғриқлари (ЗБО) патогенетик механизми, вегетатив бузилишлар ва постурал ўзгаришлар ҳанузгача ўрганилмоқда ва муҳокамаларга сабаб бўлмоқда. Сўнгги йилларда ўтказилган эпидемиологик тадқиқотлар аҳолининг 80% ида вегетатив дисфункция белгилари мавжуд [1,2].

Психовегетатив бузилишларга асосий сабаб сифатида психоижтимоий омиллар кўрсатиб ўтилади. Улардан узоқ давом этган эмоционал стресс, чарчаш, соматик касалликлар, узоқ давом этган очлик, кайфият пастлиги, таъсирчанликни кўрсатиб ўтиш мумкин [3,4].

Улар орасида эндокрин- гуморал бошқарув ўзгаришлар (пубертат, климакс), уйқу бузилишлари уҳим ўрин эгаллайди. Бу ҳолатда организм бош мия лимбик- ретикуляр тизими орқали бошқариладиган мослашув функциясини ишга туширади [5,6].

Мослашувчанлик организм ва атроф- муҳит орасида ўзаро алоқа ўрната олиш жараёнидир. Турли патологик ҳолатларда организмнинг мослашувчанлик қобилияти издан чиқади. Натижада эмоционал бузилишлар ривожланади [7,8]. Психовегетатив бузилишлар турли- туман бўлиб, таъсирчанлик, норозилик, қоникмаслик, зўриқиш, хавотирни келтиришимиз мумкин [9,10]. Вегетатив асаб тизими сегмент усти аппарати дисфункцияси соматик касалликлар, турли неврологик касалликлар, давомли стресс, гормонал бузилишларда кузатилиши муаллифлар томонидан келтирилган. ХКТ-10 да психовегетатив бузилишлар “Вегетатив асаб тизими соматоформ дисфункцияси” га киритилган. Одатда психовегетатив синдром иккиламчи бўлиб, динамик хусусиятга эга. У икки хил кечиши мумкин: перманент (узоқ), пароксизмал (эпизодик, хуружсимон). Вегетатив бузилишлар турли- туман бўлиб, полисистем хусусиятга эгаллиги келтирилган. Вегетатив дисфункция учун нефроэндокрин бузилишлар, уйқу бузилишлари, хавотир, астеник ҳолатлар хослиги муаллифлар томонидан келтирилган. Вегетатив дисфункцияга кардиоваскуляр, гастроинтестинал, нафас бузилишлари хосдир. Психовегетатив дисфункция асосий белгиси хавотир бўлиб, ички таранглик, таъсирчанлик билан характерланади. Хавотир узоқ давом этган стрессга нисбатан организмнинг ҳимоя реакцияси сифатида намоён бўлади. Кўп сонли тадқиқотлар кўрсатишича, хавотир барча функционал патологияларнинг 30% ини ташкил қилади [8].

Стресс эса психовегетатив синдром ривожланишида муҳим ўрин эгаллаши муаллифлар томонидан келтирилган [5].

Исталган соматик патология организм учун стресс ҳисобланиб, нейроэндокрин ва вегетатив дисбалансга олиб келади [5, 6].


Ҳавотирдан сўнг депрессия иккинчи ўринни эгаллайди. Муаллифлар томонидан ўтказилган кўп сонли тадқиқотлар депрессия ҳавотирнинг узок чўзилишига олиб келади. Организмда кечаётган гормонал, рухий, ҳамда ижтимоий омиллар депрессияни кучайтиради. Депрессия аёлларда эркакларга нисбатан 12-20% кўп учраши юқоридаги фикр тасдиғи сифатида келтирилган [7]. Муаллифлар фикрича депрессия ва ҳавотир коморбид ҳолатлар бўлиб, бир-бирини кучайтиради [8]. Ҳавотирли-депрессив ҳолатлар бемор рухий, ижтимоий, жисмоний ҳолатига салбий таъсир қилиб, ҳаёт сифати пасайишига олиб келади [3].

Сўнгги йилларда беморлар орасида бош оғриқларининг кучайиши рухий ва соматик дисбалансга олиб келди, шу сабабли ҳам бош оғриғини асаб касалликлари ва рухий, хулқий бузилишлар бўлимида кўрилишига олиб келди [9,10]. Муаллифлар томонидан бош оғриғи ва эмоционал бузилишлар орасида узвий алоқа мавжудлиги келтирилган [11]. 55% ҳолатда беморларда вегетатив бузилишлар кузатилгани келтирилган, бунда шахс ҳавотири ва астеник ҳолат устунлик қилган.

Адабиётлар:

1. Ходжиева Д. Т., Ахмедова Д. Б. Турли генезли бош оғриқларида беморларни олиб боришга дифференциал ёндашув ва реабилитация усуллари тақомиллаштириш //журнал неврологии и нейрохирургических исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 4.
2. Bakhodirovna A. D. Analysis of Side Effects of Drugs Used in the Treatment of Chronic Tension-Type Headache //international journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 54-55.
3. Ахмедова Д. Бирламчи бош оғриқлари фармакотерапияси //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 9-13.
4. Ахмедова Д. Б. Сурункали зўриқишдаги бош оғриғи ва мигрена олий нерв фаолияти бузилиши //журнал неврологии и нейрохирургических исследований. – 2021. – №. SPECIAL 1.
5. Akhmedova D. V. Tension headache-treated with amitriptyline-A //International Multidisciplinary Scientific Conference on the Dialogue between sciences & arts, religion/march-april-91-92. – 2021.
6. Bahodirovna A. D. Evaluation Of the Effect of Girudotherapy on Pain Intensity in Chronic Tension Headaches According to The Mcgigl Survey //Eurasian Medical Research Periodical. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 7-12.

7. Ходжиева Д. Т., Ахмедова Д. Б. Гирудотерапия тарихи ва илмий асослари //Журнал" Медицина и инновации". – 2021. – №. 3. – С. 143-146.
8. Ахмедова Д. Б., Ходжиева Д. Т. Анализ распространенности головных болей среди населения Бухарской области //ACADEMICIA: Международный междисциплинарный исследовательский журнал. – 2021. – с. 11. – №. 3. – с. 431-433.



ИММЕРСИЯ: ОБЩИЕ ЗНАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ЯЗЫКЕ

Исраилов Жахонгирхон Джамшидхонович

j.israilov@gmail.com

Аннотация: Иммерсия в изучении языка относится к методам, которые позволяют ученикам погрузиться в аутентичное языковое окружение и взаимодействовать с языком в реальных ситуациях. Этот подход способствует развитию коммуникативных навыков и более глубокому пониманию языка и его связи с культурой. В данной статье рассмотрим значение иммерсии в изучении языка, а также приведем цитаты ученых, подкрепляющие ее эффективность.

Ключевые слова: иммерсия, изучение языка, коммуникативные навыки

Иммерсия - это погружение в среду, состояние полного погружения в определенное окружение или ситуацию.

Иммерсия представляет собой чувство полного погружения в окружающую среду. Когда мы ощущаем действительное присутствие внутри виртуальной реальности, это означает, что иммерсия реализована на самом высоком уровне [1]." "Иммерсия в виртуальной реальности создается путем соединения сенсорных впечатлений, таких как зрение и слух, с возможностью взаимодействия со средой. Чем более насыщенные и естественные ощущения участник испытывает, тем более глубокая иммерсия достигается.[2]" "Иммерсия превращает виртуальную среду в реальность для пользователя. Когда пользователя окружает контент, который он видит, слышит и ощущает, его инстинкты и эмоции включаются, и он ощущает себя частью этой среды.[3]" "Иммерсия в контексте виртуальной реальности означает создание иллюзии взаимодействия с окружающим миром, которая приближается к ощущению реальности. Чем более точно передаются чувства, движения и взаимодействие в виртуальной среде, тем сильнее ощущается иммерсия.[4]"

Иммерсия в изучении языка относится к методам, которые создают аутентичные взаимодействия с языком в реальных ситуациях, что помогает ученикам погрузиться в языковую среду и улучшить свои навыки коммуникации. Ниже приведены некоторые цитаты ученых об иммерсии в изучении языка:

"Иммерсия предоставляет уникальную возможность погрузиться в языковое окружение и использовать язык в живых ситуациях. Она становится наиболее эффективным методом для развития коммуникативных навыков и понимания языка. [5]"

"Иммерсия в языковую среду не только позволяет учащимся получать навыки практического использования языка, но и помогает воздействовать на их

культурное понимание и сознание. Это создает более глубокое понимание языка и его связей с культурой. [6]"

"Иммерсия в языковую среду подразумевает погружение в реальные ситуации, где язык активно используется для общения. Это помогает развить уверенность в использовании языка и улучшает навыки восприятия и продуктивного общения.[7]" Иммерсия в языковую среду является эффективным способом активизации языковых навыков и совершенствования языковой компетенции. Приобретение языка через непосредственное взаимодействие с носителями языка и в реальных ситуациях способствует более быстрой и глубокой ассимиляции .

Тезисы описывают значение иммерсии как погружения в определенную среду или ситуацию. В общем смысле, иммерсия представляет собой состояние полного погружения, в котором человек ощущает себя частью окружающей среды. Цитаты ученых подчеркивают, что иммерсия в виртуальной реальности достигается путем объединения сенсорных впечатлений и взаимодействия со средой, создавая ощущение реального присутствия. Они также указывают, что иммерсия в изучении языка позволяет учащимся погрузиться в аутентичную языковую среду для развития коммуникативных навыков и практики использования языка в реальных ситуациях. Это обеспечивает глубокое понимание языка и его связи с культурой, улучшает навыки восприятия и продуктивного общения. Иммерсия также активизирует языковые навыки и способствует совершенствованию языковой компетенции в результате непосредственного взаимодействия с носителями языка и в реальных ситуациях. Иммерсия в языковую среду предоставляет уникальную возможность учащимся погрузиться в реальные языковые ситуации и активно использовать язык в практических контекстах. Как отмечено в одной из цитат, это становится наиболее эффективным методом для развития коммуникативных навыков и улучшения понимания языка.

✓ Иммерсия в изучении языка предоставляет учащимся возможность окунуться в языковую среду, где они могут применять свои знания языка в практических ситуациях.

✓ В этом методе изучения языка присутствует коммуникативная направленность, которая активизирует использование языка и развивает навыки общения.

✓ Погружение в языковую среду обеспечивает ученикам возможность услышать и использовать аутентичную речь, что помогает им привыкнуть к реальным ситуациям общения.

- ✓ Практика языка в реальных ситуациях создает более живое и реалистичное представление о языке, что способствует более глубокому пониманию и запоминанию языковых структур и выражений.
- ✓ Использование иммерсии в изучении языка позволяет студентам улучшить свои навыки слушания и аудирования, так как они сталкиваются с реальными диалогами и разговорами на языке.
- ✓ Важным аспектом иммерсии является возможность наблюдения за носителями языка и адаптация их произношения и интонации.
- ✓ Иммерсия также способствует развитию навыков чтения и письма путем предоставления студентам возможности взаимодействия с текстовыми материалами на языке.
- ✓ Погружение в языковую среду помогает студентам усвоить лексику и фразы, которые часто используются носителями языка в реальных ситуациях.
- ✓ Благодаря иммерсии, студенты становятся более уверенными в использовании языка, испытывают меньше страха перед коммуникацией и легче общаются.
- ✓ Этот метод изучения языка помогает студентам развить навыки спонтанной речи и быстрого мышления на языке.

Источники:

1. Ламмерс, М. (2017). Иммерсия в виртуальной реальности. В Книга о виртуальности (с. 223-240). Springer, Шам.
2. Хаттон, М., Эллайн, Э. и Накатсу, Р. (2020). Иммерсия в VR. В Виртуальные, дополненные и смешанные реальности в образовании (с. 3-39). Springer, Сингапур.
3. Слейтер, М. (2003). Примечание о терминологии присутствия. Журнал "Присутствие: Телеператоры и виртуальные среды", 12(5), 525-535.
4. Биллингхерст, М., Кларк, А., Ли, Г. и Манн, С. (1998). Техники достижения высокого уровня иммерсии в VR-симуляциях. Виртуальная реальность, программное обеспечение и технологии 1998 (с. 234-245). Springer, Лондон.
5. Тэлбот, Э. (2018). Иммерсия в языковую среду и приобретение второго языка. В Справочник по индивидуальным различиям в компьютерно-помогаемом языковом обучении (с. 202-220). IGI Global.
6. Росситер, Л. (2011). Культурные знания и языковая иммерсия: Лингвистический антрополог задает некоторые острые вопросы. Журнал антропологии и образования, 42(3), 189-202.
7. Майерс, А. и Джонс, М. (2010). Иммерсионные опыты. В Холистическое обучение и духовность в образовании: Новые горизонты

SHIRIN QALAMPIR – VITAMINLAR, MAKRO VA MIKROELEMENTLARNING MUHIM MANBAIDIR

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
magistranti **Bobonazarov Botirali***

Annotatsiya: Ushbu maqola shirin qalampir qimmatli oziq-ovqat mahsuloti va juda yaxshi dorivor xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Shirin qalampir vitaminlar va boshqa foydali moddalarga boy. Shuning uchun ular tibbiy va sog'lom ovqatlanishda tavsiya etiladi. Shirin qalampirni muntazam iste'mol qilish yurak qon tomir kasalliklarini bartaraf etadi, ovqat hazm qilish ishlarini yaxshilaydi, saraton, anemiya va ko'rish kasalliklarini oldini oladi. Hatto ba'zi dorilar uning asosida ishlab chiqariladi. Shirin qalampir tarkibida 12 xil vitamin va 10 xil makro va mikroelementlar mavjud.

Kalit so'zlar: Shirin qalampirning foydali xususiyatlari, mevasi, vitaminlar, mineral tuzlar, quruq moddasi, polivitamin, makro va mikroelementlar.

So'nggi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligini islox qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning xuquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, axolining extiyoji uchun oziq-ovqat maxsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur homashyo yetishtirilmoqda. Bugungi kunda respublikada yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi maxsulotlari dunyoning 66 ta mamlakatiga eksport qilinmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda sabzavot ekinlari orasida ekin maydoni va ishlab chiqarish hajmi jihatidan tobora oshib borayotgan ekinlardan biri bu – Shirin qalampirdir.

Shirin qalampir Tomatdoshlar (Solanaceae) oilasiga mansub bo'lib madaniy holda Capsicum annum L turi ekiladi. Odatda bir yillik ekin sifatida yetishtiriladi, ammo u tropik mamlakatlarda va himoyalangan maydonlarda ko'p yillik ekin sifatida yetishtirilishi mumkin. Uning vatani Janubiy Amerikaning Meksika va Gvatemala mamlakatlari hisoblanadi. Bu o'simlik oziqaligi jixatidan qimmatbaho ekindir. Shirin qalampir mevasi sabzavot sifatida yangi uzilgan, tuzlangan, ziravorlab sirkalangan, konserva qilingan va dimlab pishirilgan holda iste'mol qilinadi. Mevasidan turli salatlar, souslar, pasta va shiralar tayyorlanadi. Mevasining yaxshiligi, parxezbopligi

va tarkibining hayotiy qimmatli moddalar bilan boyligi uning keng tarqalishi va ko'plab iste'mol qilinishiga sabab bo'lmoqda. Shirin qalampirning mevasi shakliga qarab 14 turdagi mevalarga ajratiladi: ovalsimon, tuxumsimon, yassi-yumaloq, sharsimon, prizmasimon, konussimon, silindrsimon va boshqalar.

Mevasi 2, 4, 6 kamerali, ko'p urug'li rezavor. Mevasining uzunligi 2-20 sm, diametri 4-10 sm, meva devorining qalinligi 2-8 mm. Mevasining rangi to'liq yetilganda och, to'q ko'k, biologik yetilganda esa sariqdan to'q qizilgacha bo'ladi. Meva vazni o'rtacha 25 g dan 130 g gacha yetadi. Shirin qalampir tabiiy polivitamin konsentrat hisoblanadi. Shirin qalampir mevasi vitaminlar, mineral tuzlar va quruq moddaga boy. Uning mevasi askorbin kislotasi (vitamin S) hosil qilishi jihatidan barcha sabzavotlardan ustun turadi. Mevasi texnik yetilgan davrda 100 g hosil massasi tarkibida 54-118 mg%, to'liq biologik yetilganda esa 368-535 mg% gacha askorbin kislotasi bo'ladi. S vitaminidan tashqari A (karotin) - 4,60 mg, V1 (tiamin) - 0,06 mg, V2 (riboflavin) - 0,01 mg vitaminlari ham mavjud. Karotin (provitamin A) miqdori (9-12%) jihatidan u sabziga tenglashtiriladi. V guruhga kiruvchi vitaminlar miqdori jihatidan sabzavotlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Inson immun tizimini shakllantirishda vitamin-antioksidantlar A, C, E va boshqalar juda katta yordam beradi. Ularning inson umrini uzaytirishi, immunitetni kuchaytirishi, qarishni susaytirishi va stress omillarga chidamliligini oshirish ko'pgina tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan. Ushbu ekin mevasi tarkibida 85,5-91,0% suv, 14,4% quruq modda, 1,3- 1,5% oqsil, 5,4-5,7% uglevodlar, 1,4-1,8 % kletchatka singari moddalar mavjud. Shirin qalampir mevasi turli ko'rinishdagi minerallarga ham juda boy bo'lib, uning 100 mg ho'l mevasi tarkibida kul elementlarining miqdori 0,7%, natriy 19%, kaliy 163%, kalsiy 8%, magniy 11%, fosfor 16% ni tashkil etadi. Shirin qalampir 0,01-0,15% kapsaitsin alkaloidi bo'lib, unga o'tkir ta'm, maza bag'ishlaydi.

Shuningdek, tiamin ham mevada ko'p miqdorda uchraydi. 100 gramm Shirin qalampir 250 mg; A – vitamini 333mg; V6 – vitamini 50 mkg; V9 – vitamini 17 mg; E – vitamini 67 mkg; kaliy – 163 mg; marganes – 16 mg; fosfor – 16 mg; magniy – 7 mg; temir – 60 mg. Polivitamin mahsulot sifatida singa, kamqonlik, kamquvvatlilik, gipo va avitaminozda yaxshi samara beradi. Tarkibidagi C vitamini va karotin organizmni yuqumli kasalliklarga himoya reaksiyasini kuchaytiradi, oshqozon-ichak traktidagi noxushliklarni bartaraf etadi. Qalampir qon aylanishdagi buzilishlarni bartaraf etadigan tabiiy dori vositasi – u qon quyulishining oldini oladi, kapillyarlarni mustahkamlaydi, tromboflebit, anemiya, burundan qon ketishini, qon tomirlarini zararlaydigan yuqumli kasalliklarni (revmatizm, tuberkulyoz) oldini oladi. Bundan tashqari, u jigar va o't pufagi ishini yaxshilaydi, ovqat hazm qilish tizimiga davolovchi sifatida ta'sir etadi. Qorin og'rig'ida, damlaganda, meteorizmda yaxshi yordam beradi, og'iz bo'shlig'ini dizenfeksiya qiladi. U qondan xolesterinni chiqarib yuborishga ham yordam beradi.

Shirin qalampir sharbati soch va tirnoqlarni mustahkamlaydi, yog' bezlarining ishini yaxshilaydi, sabzi sharbati bilan qo'shib ishlatganda terini pigmentli dog'lardan tozalaydi va ajinlarni tekislashga yordam beradi. Mineral moddalardan kaliy, temir, magniy, fosfor anchagina miqdorda rux, kremniy mavjud.

Hozirgi paytda muzlatilgan mevalarini keyingi mavsumgacha saqlab iste'mol qilish mumkin. Saqlanganda va transportda tashilganda mevalari deyarli zararlanmaydi. Mevalarida ko'plab kletchatka va pektin moddalari, makro va mikroelementlar, C va R vitaminlari bo'lishi bu sabzavotni qon tomir vositasi deb hisoblashga sabab bo'ladi va ular arteriya, kapillyar va venalarni sog'lomlashtiradi. C vitamini esa rux bilan hamkorlikda sellulyutga qarshi juda yaxshi vosita hisoblanadi. Kaliy, magniy va kaltsiy minerallari miya neyronlarini tiklaydi, asab tizimini stressdan himoya qiladi, diqqat va aqliy faollikni oshiradi. Shirin qalampirni iste'mol qilish orqali biz temir, fosfor, rux va yod etishmasligini ham to'ldiramiz. Meva tarkibidagi moddalar ishtahani qo'llab-quvvatlaydi, oshqozonni oziq-ovqatni faol qayta ishlashga majbur qiladi va tanani toksinlar va parchalanish mahsulotlaridan xalos qiladi. Shirin qalampir tarkibidagi S vitamini bo'yicha hatto limon bilan ham raqobatlasha oladi, bu qon tomirlarini dori-darmonlarsiz mustahkamlashni istaganlar uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, shirin qalampir tarkibida "askorbin kislotasi" ta'sirini kuchaytiruvchi P vitamini mavjud. Bulg'or qalampirining ko'plab foydali xususiyatlariga qaramay, ba'zi odamlar uchun u qat'iyan ta'qiqlangandir. Uning bir qismi bo'lgan tolalar yara, gastrit bilan og'rigan bemorning ahvolini yomonlashtirishi mumkin. Qalampir ham qon bosimini pasaytirishga yordam beradi, shuning uchun bu sabzavot gipotenziya bilan og'rigan odamlar uchun taqiqlangandir. Allergiya bilan og'rigan bemorlar ham C vitamini va efir moylarining ortiqcha miqdori tufayli uni iste'mol qilmasliglari kerak.

Mahsulotni yangi iste'mol qilish yaxshidir. Xom bulg'or qalampiri eng ko'p foyda keltiradi va ovqatni to'liq hazm qilishga yordam beradi. Shirin qalampirni qaynatish, pishirish, qovurish, konservalash mumkin. Ommabop taom "to'ldirilgan qalampir" hech kimni befarq qoldirmaydi. Biroq, Shuni hisobga olish kerakki, issiqlik bilan ishlov berish jarayonida sabzavotning qimmatli mikroelementlari 70% gacha yo'qoladi. Qalampirda juda ko'p foydali moddalar mavjud, ammo issiqlik bilan ishlov berish paytida ularning ko'pchiligi o'z xususiyatlarini yo'qotadi. Shuning uchun, sabzavotdan maksimal foyda olish uchun uni xom holda iste'mol qilish kerak. Oshqozonida muammo bo'lganlar uchun avval qalampir ustiga qaynoq suv quyib, keyin duxovkada yoki bug'da pishirish tavsiya etiladi. Shirin qalampir bu organizmga zarur bo'lgan vitaminlar manbai hisoblanadi. Shirin qalampir bir qancha kasalliklarga davo bo'ladigan tabiiy dori vositasidir. Maqolada shirin qalampir qimmatli oziq-ovqat mahsuloti ekanligi va uning dorivor xususiyatlari haqida ma'lumot ko'rsatildi. Shirin qalampir vitaminlarga boy mahsulot bo'lib, inson organizmiga foydali ta'sirlari juda

ko'p. Bu esa shirin qalampir ekiladigan maydonlarni ko'paytirish va sifatli navlarni yetishtirish lozimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azimov B.B., Mavlyanova R.F., Azimov B.J. O'zbekistonda shirin qalampirdan yuqori hosil olish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent: 2016. 18-b.
2. Turkiya Respublikasi Oziq-ovqat qishloq xo'jaligi vazirligi hamda "Denizbank" hamkorligida tayyorlangan "100 ta kitob"dan iborat to'plami.
3. Xakimov R.A., Abbosov A.M., Azimov B.J., Ganiev F.K., Berejnova V.V., Rasulov A.I., Xoldorov M. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. - Toshkent: 2014, b-13.
4. Rasulov F.F. Takroriy muddatda shirin qalampir navlarini tanlash va yetishtirish texnologiyasining elementlarini takomillashtirish. Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi. - Toshkent - 2017. 6-11-13
5. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo'jaev O.K. Kitob. Sabzavotchilik, 2009. 6-273-275.
6. www.shutterstock.com

**ANDIJON TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA POMIDOR NAVLARINING
HOSILDORLIGI VA O‘G‘IT ME‘YORINI ANIQLASH.**

Tillaboyev Shoxruxbek Muhammadillo o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Andijon viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitida pomidordan yuqori hosil yetishtirishda azotli o‘g‘itlar me‘yorini ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonning vodiy hududida pomidordan yuqori hosil olishning optimal muddatlarini aniqlash to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Andijon, tuproq, azotli o‘g‘itlar, pomidor hosildorli, o‘g‘itlar me‘yori.

Аннотация: Статья основана на разработке норм азотных удобрений для выращивания высоких урожаев томатов в луговых почвах Андижанской области. В то же время речь идет об определении оптимальных сроков высокой урожайности томатов в южных регионах Узбекистана.

Ключевые слова: Андижанская область, почва, азотные удобрения, урожайность томатов, ценность удобрений.

Annotation: The article is based on the development of nitrogen fertilizer rates for growing high yields of tomatoes in the tagyr-meadow soils of Andijan region. At the same time, we have been talking about determining the optimal timing of high yield of tomatoes in the southern regions of Uzbekistan.

Keywords: Andijan, soil, nitrogen fertilizers, tomato productivity, fertilizer value.

Kirish. Bugungi kunda pomidor dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida jami 4,0-4,7 mln. gektar maydonda ekilib, har yili 160 mln. tonnadan ortiq pomidor hosili yetishtirilmoqda³. Dunyoda sabzavot ekinlari orasida pomidor eng katta maydonga ekilib AQSh, Xitoy, Italiya, Ispaniya, Rossiya, Hindiston, Turkiya va Misr kabi davlatlarning sabzavotchiligida asosiy ekinlardan biri hisoblanadi. Pomidorning rezavor mevasi inson tanasi uchun foydali bo‘lgan vitaminlar, qandlar, organik kislotalar, mineral elementlar, karatin va biotin kabi moddalarga boy hisoblanadi⁴. Respublikamizda so‘nggi yillarda aholini oziq-ovqat va boshqa qishloq xo‘jaligi, xususan, sabzavot mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish maqsadida sabzavotchilik tarmog‘ida keng qamrovli choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Sabzavot ekinlari, jumladan pomidor etishtirishning yangi innovatsion texnologiyalari joriy etilmoqda. Hozirda respublikamizda 194 ming gektardan ortiq maydonga sabzavot ekinlari etishtirilayotgan bo‘lsa, shundan 32,8 foiziga pomidor ekini ekilib, o‘rtacha hosildorlik gektariga 24 tonnani tashkil etmoqda⁵. Keyingi yillarda dunyoda

sabzavotchilikda ekinlar hosildorligini oshirish, ma'daniy o'g'itlar va sug'orish suvlaridan oqilona foydalanish, hosildor navlarni keng qo'llash, er va suv resurslarini tejovchi ilg'or agrotexnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Pomidor hosildorligi va samaradorligini oshirish omillaridan hamda uni yetishtirishning resurstejamkor texnologiyalaridan biri uni urug'ini to'g'ridan-to'g'ri ochiq maydonga ekib, plynka bilan mulchalab yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Boshqa hududlarda ishlab chiqilgan pomidorni yetishtirish texnologiyalarini O'zbekistonning jazirama quruq iqlimli sharoitlariga mexanik tarzda ko'chirib bo'lmaydi. Bu erda mahalliy sharoitlarga moslashgan navlar ekilishi hamda tuproq va iqlim sharoitlari inobatga olingan holda yetishtirish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq. O'zbekistonda pomidor seleksiyasi bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida pomidorning ochiq dala uchun mamlakatimizda yaratilgan 20 ta navi Davlat reestrda rayonlashtirilgan bo'lib, ularning asosiy mualliflari Ye.V.Ermolova va M.X.Aramovlardir. Pomidor seleksiyasi yo'nalishlari va uslublari ushbu olimlarning ko'plab ilmiy maqolalarida hamda V.F.Pivovarov va M.X.Aramovlarning «Pomidorning ekologik seleksiyasi» (1996) monografiyasida yoritilgan. Pomidor hosildorligining mineral o'g'itlar me'yoriga bog'liqligi bo'yicha tadqiqotlar natijalari B.D.Azimovning «O'zbekistonda pomidorning intensiv navlarini yetishtirish texnologiyasi» (1990) monografiyasida umumlashtirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida pomidordan yuqori hosil yetishtirishda azotli o'g'itlar me'yorini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Andijon o'tloqi bo'z tuproqlarini va uning unumdorligini agrokimyoviy tahlil qilish;

O'zbekistonning vodiy hududida pomidordan yuqori hosil olishning optimal muddatlarini aniqlash;

o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida pomidordan yuqori hosil yetishtirish ekologik xususiyatlarini kursatish;

pomidor urug'larini yetishtirish uchun eng maqbul mineral o'g'itlar me'yorini aniqlash; pomidor yuqori hosil yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning predmeti sifatida pomidor hosildorligining tuproq iqlim sharoitiga bog'liqligini baholash va navlarga ajratish, genetik manbalar yaratish, ularni adaptiv va kombinatsion qobiliyati bo'yicha baholash va hosildorlikning azotli o'g'itlar me'yoriga bog'liqligini belgilash hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Andijon o'tloqi bo'z tuproqlarini va uning unumdorligini agrokimyoviy tahlil qilingan;

pomidordan yuqori hosil olishda O‘zbekistonning vodiy hududlarida optimal muddatlari aniqlandi;

pomidordan yuqori hosil yetishtirish ekologik xususiyatlarining o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitlariga bog‘liqligi isbotlangan;

pomidor urug‘larini yetishtirish uchun eng maqbul mineral o‘g‘itlar me‘yori aniqlangan;

pomidor yuqori hosil yetishtirish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqotlar o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitida olib borilgan bo‘lib, Sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida ishlab chiqilgan uslublardan foydalanildi. Olingan ma‘lumotlarning aniqligi va ishonchliligi umumiy qabul qilingan B. A. Dospexovning ko‘p omilli uslubi yordamida matematik-statistik tahlil qilindi. Pomidordan yuqori hosil olishning tuproq-iqlim sharoiti va minerall o‘g‘itlar me‘yoriga bog‘liqlik texnologiyasi ishlab chiqilgan. Yovvoyi tropik o‘simligi hisoblangan pomidor (*Lycopersicon lycopersicum*) birinchi marta Peruning Andax shahrida tarqalgan. Bizning eramizda uning mevasidan oziqa sifatida foydalaniladi. Yevropaga tomat Kolumb tomonidan yetkazilgan (1498 y.), birinchi marta Italiyada 1554 yilda va 1576 yilda Angliyada ro‘yxatga olingan. Achchiq pomidor mevasi moslashtirilib, oziq-ovqatda foydalanila boshlandi. 1820 yilda faqatga farmasevtikada sergaklantiruvchi modda sifatida foydalanilgan.

XVIII asr o‘rtalariga kelib, pomidor sabzavot o‘simligi sifatida ko‘rila boshlandi. Faqatgina birinchi jahon urushi davrida u Yevropaliklar o‘rtasida sabzavot o‘simligi sifatida keng tarqalgan. Hozirgi kunda ekin maydoni va ishlab chiqarish hajmi jihatidan dunyoda to‘qqizinchi o‘rinda turadi. Dunyo bo‘yicha yetishtiriladigan pomidor ulushining 50% ini Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlari tashkil qiladi.

Yevropa mamlakatlarida 450 ming, Italiyada 120 ming, Ispaniyada 60 ming va Bolqon mamlakatlarida 60 ming gektar maydonga ekiladi. Shimolda joylashgan mamlakatlarda guruntni himoyalash maqsadida yetishtiriladi. Niderlandiyaning 2,3 ming, Angliyaning 0,8 ming, Germaniyaning 0,2 ming, Shvesiyaning 0,05 ming, Daniyaning 0,065 ming gektarga teng bo‘lgan hududlarida shu maqsadda o‘stiriladi. Germaniyada 70% pomidor mahsuloti issiqxonalarda, 30% i ochiq gruntlarda yetishtiriladi [556].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yaratilgan, yuqori ta‘m sifatiga ega pomidor navlariga talab o‘rib bormoqda. Bu esa pomidor nav xillarini, hamda mamlakatimizda geterozis duragaylari seleksiyasi ilmiy bazasini takomillashtirish zaruratini belgilaydi. Bunday navlarni yaratish uchun mamlakatimizda mavjud hamda xorijiy pomidor navlarini baholash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish, ular orasidan seleksiya uchun dastlabki material sifatida kasalliklarga chidamli hamda yuqori hosildorlarini tanlab olishni taqozo etadi.

O'zbekistonda ko'chatdan yetishtiriladigan pomidorga stirish moddalarini qo'llash, pomidor urug'larining matrikal va ekologik turli sifatli bo'yicha birlamchi tajribalar o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Pomidor mevalari va urug'larini ko'chat usulida yetishtirish texnologiyalarining ayrim elementlari bo'yicha ishlab chiqarish tajribalari va boshqa hududlar ma'lumotlarini umumlashtirish asosida tavsiyalar berilgan.

Pomidor shirin ta'mli meva, jozibali rang va tetiklashtiruvchi ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Mevasi tarkibida aniq miqdorga ega bo'lgan fiziologik aktiv va mineral moddalar, S vitamin, makroelementlar va limon kislotalari mavjud. U sog'liq uchun juda foydali, uzoq vaqt davomida yangi ko'rinishda yurishda foydalaniladi. Savzovotlar ichida tarkibida almashtirib bo'lmaydigan oziqa mahsulotlarini saqlashi bilan alohida ajralib turadi. Pomidor mevasini sanoatda qayta ishlab, undan qimmatli mahsulotlardan hisoblangan tomat-pastasi va tomat soki olishda keng foydalaniladi. Mineral va organik o'g'itlarni o'z me'yorida berish xosildorlikni oshiribgina qolmay xosil sifatini ham yaxshilaydi. Mineral moddalardan kaliy, kalsiy, azot va fosforni ko'p o'zlashtiradi. Fosfor pomidorning xosil tugishida asosiy rol o'ynaydi. O'zlashtirilgan fosforning 94% foizi mevalarning rivojlanishiga sarf bo'ladi. Pomidor ko'chatlari rivojlanishining birinchi oylarida fosforli o'g'itlar bilan albatta oziqlantirilishi kerak, chunki u ildizlarning o'sishiga, xosil elementlarining shakillanishiga va keyinchalik ertaroq gullab mevalarning pishishini tezlatishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fosforning etishmasligi o'simlik tomonidan ozotning o'zlashtirilmasligiga olib keladi. Oqibatda o'simlik past bo'yli bo'lib, noziklashib qoladi.

Xulosa qilib aytganda: Azot o'simliklarining vegetativ organlarini shakillantirishda asosiy rol o'ynaydi. Azotli o'g'itlar bilan to'g'ri oziqlantirish meva tugishi va yetilishini kuchaytiradi. Azot ko'p bo'lganda o'simlik kuchli barg yozib, poyalash boshlanadi. Xosil elementlari kam bo'lib, meva pishishi sekinlashadi. Azot kam bo'lganda o'simlik o'sishdan to'xtaydi va barg soni ham kam bo'ladi. Pastki barglar kulrang sariq tusga kiradi va tushib ketadi, meva tugishi keskin kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aramov M.X., Hakimov R.A., Azimov B.J. va boshqalar. O'zbekiston janubida sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish texnologiyasi bo'yicha tavsifnoma, 2012. 43 bet.
2. Мамедов М.И., В.Ф. Пивоваров М.И., Пышная О.Н. Селекция томата, перца и баклажана на адаптивность, - М., 2002. -С. 5-18.
3. Арамов М.Х. Эколого генетические основы селекции томата на устойчивость к патогенам и адаптивную способность. Автореферат. дисс. докт. с.х. наук- Санкт-Петербург, 1994. 48 с.
4. Azimov B.J., Hakimov R.A., Abbosov A.M., Azimov B.B. Sabzavotsilik, polizchilik va kartoshkachilikda yil davomida oyma-oy bajariladigan tadbirlar tavsifi. Toshkent, 2010. 118 bet.

CONSIDERING THE AGE AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN THE EVENT.

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Done by: Rustamova Muslima

Group 303

Abstract: Today, the young generation is interested in learning foreign languages, especially English interest is increasing. Therefore, this language is more in-depth in secondary schools pedagogical staff are required to use innovative methods for teaching for this reason, adopted on December 10, 2012 “Learning foreign languages on further improvement of the system” and from 2013-2014 the current of continuous teaching of foreign languages in the first grades of general education schools is a clear proof of this.

Key words: Learning foreign languages, English as a world language, modern Technologies, online TV channels.

Аннотация: Сегодня молодое поколение заинтересовано в изучении иностранных языков, особенно английского интерес возрастает. Поэтому этот язык более углубленно изучается в средних школах. Педагогические кадры обязаны использовать инновационные методы обучения по этой причине принятые 10 декабря 2012 г. «Обучение иностранным языкам по дальнейшему совершенствованию системы» и с 2013-2014 гг. Течение непрерывного обучения иностранным языкам в первых классах общеобразовательных школ яркое тому доказательство.

Ключевые слова: изучение иностранных языков, английский как мировой язык, современный язык, Технологии, онлайн телеканалы.

Annotatsiya: Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta’lim maktablarida bu tilni chuqurroq o‘rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o‘rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir.

Kalit so‘zlar: Chet tillarini o‘rganish, Ingliz tili jahon tili sifatida, zamonaviy texnologiyalar, online telekanallar.

The desire to learn a language is very high in young children, especially with today’s information and communication tools, this situation is high indicators is showing. On the part of our state, conditions created in schools, classrooms equipped

with modern technologies, young educated personnel provided, all classes for independent study except for school teachers thanks to the organization of television online classes on online TV channels you deserve Students of 1st and 2nd grade learn grammatical, lexical, phonetic, units of the language they may not understand, but through cartoons, games, pictures, the language is excellent can master. Accordingly, two methods are useful in grammar is used.

- Inductive
- Deductive

In the inductive method, grammar rules are first explained to students, and then examples are given strengthened through This method is often useful for high school students. For example tenses, prepositions, articles are known terms for high school students make a sentence by putting parts of the sentence such as possessor, determiner, complement, and case in sentences they get In the deductive method, the subject is first introduced through certain games and exercises. Then it is explained according to the rule. Elementary school students have, participles, verbs and add games to them because they don't know about other units it is more effective to explain the topic through. For example, Can is a modal verb in English songs are taught through handout materials.

- Can you play football
- Can you call me?
- It is very easy
- Can you do it Nancy?

According to psychologists, compared to older people, children are more interested in new things, the passion for reading and learning will be 70-80% stronger. In our daily life children try to perform tasks that they cannot perform despite warnings. That's why they get bored with sameness very quickly organization of lessons in new ways, non-traditional way from pedagogical personnel, it is necessary to be able to fully create the environment of the studied foreign language.

Another important aspect of teaching English is the situation in which the student learns control of full acceptance. Thoughts, thinking of children in a group, worldviews and information acceptance are different. Accordingly, each teacher conducting the educational process based on the character of the student need. For example, some students remember by sight, and another by hearing the ability to stay can be innate. English according to these characteristics language learning is in 3 main directions. Visual learning- information by seeing remembering. Auditory learning remembering information by hearing. Kinaesthetic learning remembering information through actions. Considering the above features in addition, the teacher plays roles with the students during the lesson, during exercises. During preparation, if the topic is explained or organized through games, the results will be noticeable and motivates the

student to learn the language. In conclusion, it should be noted that in general education schools, English is taught in different classes taking into account the age and psychological characteristics of students, their foreign language which helps to fully satisfy the interests and needs of mastering. Using modern lesson developments based on pedagogical innovative technologies lessons are highly effective for students to learn the language. Below we can use in the lessons to organize such a meaningful lesson we will consider some of the didactic games and pedagogical technologies. The goal of the game “Who is faster” is to develop the writing technique. Play course: listeners are given cards with sentences written on them, and the words of the sentences on the card are arranged in random order. The one who writes first and in the correct order is the student will be the winner. This game is more effective in higher classes.

Who am I? – the goal of the game is to develop speaking techniques. Play go: a person in the group comes out and describes something or a person without naming them and the rest of the students have to find who or what according to the definition. This is a speech game increases literacy. This game is more typical for primary classes. The goal of the continuous story-game is to develop vocabulary. Play course: the class is divided into 2 groups and 2 types of stories are given in a semi-ready state and groups continue the story based on their fantasy and end it deliver. The group that uses more new words is the winner. This the game teaches students to work in harmony with each other. This game is high perform better in classes. Noisy dictation game aims to develop grammar. The course of the game: In the classroom students are placed face to face and timed one at a time after hearing some of them, write the words of the student in front of him correctly should get this game is going to be a little noisy, and it’s that noise that makes them so allows to develop advanced understanding of words even in the situation. Listening- hearing increases technique. In English, words are not written as they are heard, for example, in the word speak, the diphthong {ea} gives the sound. If the student reads the words correctly if he can understand, then this is a good result. This game is for elementary and high school is used.

REFERENCES

1. “Learning foreign languages” by Islam Abduganiyevich Karimov on December 10, 2012 Decision No. PQ-1875 on measures to further improve the system.
2. Iriskulov A.T. and others Kids’ English pupil’s book 2nd grade-Tashkent-Uzbekistan; 2014.
3. Hashimov O’. H, Yakubov I.Y.A. English language teaching methodology-Tashkent-2003

Internet resource:

1. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/>

**BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM MUTAXASSISLARINING
INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI
BELGILASH PARAMETRLARI**

Xayriyeva Madina Furqat qizi

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar 19- M.t.t

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarining innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini belgilash parametrlari va ko‘rsatkichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislari innovatsion kasbiy faoliyatiga xos bo‘lgan barcha sifatlarni yaxshi egallash omillari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’lim mutaxassisi, innovatsion kasbiy faoliyat, ijodiy yondashuv, pedagogik jarayon, malakali kadr, tarbiyalanuvchi, kasbiy rivojlanish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-son qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas.

Har bir bola o‘ziga xos xulq-atvor va xarakterga ega. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar ta’limtarbiya berishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim. Pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalar, pedagog-tarbiyachi kasbiga xos bo‘lgan barcha sifatlarni yaxshi egallagan bo‘lishlari kerak. Buning uchun pedagogika oliy o‘quv yurtlarida talabalarni tanlab olishda ularning pedagogik layoqatga egaligini aniqlash lozim. Kasbiy rivojlanishning asosiy ko‘satkichi sifatida kasbiy layoqat, ya’ni bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bois kasb tanlash bo‘yicha keng ko‘lamdagi emperik materiallarda kasbiy sifatlarni turli xil mehnat faoliyatiga muvofiq tanlangan. Kasbiy kamolotni belgilovchi asosiy psixologik omillar orasida shaxsning individual psixologik xususiyatlariga alohida urg‘u beriladi. Kasbiy faoliyatga o‘tish uzluksiz, bosqichli faoliyat bo‘lib, ta’limda mustaqil kasbiy faoliyatga o‘tish har bir insonning e’tiborga molik jihatidir. Bugungi sharoitda kasbiy tajriba, mutaxassisning kasbiy faoliyati yakunlangunga qadar ma’lum darajada eskirib bormoqda. Shu bois, shaxsning o‘ziga munosib kasb

tanlashida ham bunday holatlarning ta'siri bor. Shu sababli ham, shaxsning kasbni to'g'ri tanlaganligi, uning mayllari, qiziqishlari, kasbiy yo'nalishlari va tayyorgarligi, kasbiy ustanovkalaridagi o'zgarishlarni muntazam o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki muayyan kasbni egallashning dastlabki bosqichida bo'lg'usi mutaxassis uni egallash uchun nima qilish zarurligini yetarlicha tasavvur qila olmaydi.

Ma'lumki, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni pedagogika oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda davlat va jamiyat tomonidan maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni oldiga yangi talablar qo'yilmoqda.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy sifatleri modelning birinchi qismi sirasiga: g'oyaviy yetuklik; e'tiqodlilik; pedagogik faoliyatga intilish, unga qiziqish; pedagogik vazifalarni ijodiy ravishda hal qilishga bo'lgan ehtiyoj kabi kasbiy-axloqiy sifatlar kiradi. Bular pedagog-tarbiyachilarning o'z kasbi va tarbiyalanuvchilarga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi.

Mazkur modelning ikkinchi qismida bolalarni rivojlantirish va istiqboldagi o'quv faoliyatiga tayyorlash haqidagi bilimlar majmui o'z ifodasini topgan. Bo'lajak pedagogtarbiyachilar bolalarni rivojlantirish qonuniyatlarini bilishi, ularni shakllantirish vositalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, ularga taqdim etiladigan bilimlar, tushunchalar, ma'lumotlarning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini anglab yetishi lozim.

